



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 24 - iyul

I-61-121-14-220-K/23

Yangihayot tuman hokimligi

Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Reglamenti va doimiy komissiyalar to'g'risidagi Nizomiga o'zgartirish kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2023-yil 25-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Reglament va o'odob komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi KQ-476-IV-sonli qaroriga asosan xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2023-yil 25-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Reglament va o'odob komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi KQ-476-IV-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Tuman Kengashining 2021-yil 26-avgustdagi "Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Reglamenti va doimiy komissiyalar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi VI-19-29-14-220-K/21-sonli qarori bilan tasdiqlangan xalq deputatlari tuman Kengashining Reglamentiga 1-ilovaga muvofiq, doimiy komissiyalar to'g'risidagi Nizomiga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirish kiritilsin.
3. Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi Reglamenti va doimiy komissiyalari to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar xalq deputatlari tuman Kengashi qaroriga asosan kiritilishi belgilab qo'yilsin.
4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Xalq deputatlari Yangihayot tuman
Kengashi raisi



X.Inogamov

Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashining
2023-yil 24-iyuldagi
I-61-121-14-220-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Reglamentiga kiritilayotgan o'zgartirishlar

Xalq deputaglari Yangihayot tuman Kengashining 2021-yil 26-avgustdagi VI-19-29-14-220-K/21-sonli qarori bilan tasdiqlangan xalq deputatlari tuman Kengashining Reglamentiga quyidagi o'zgartirishlar kiritilsin:

1) **78-modda** birinchi qismining to'qqizinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“odob-axloq masalalari bo'yicha”;

2) **79-modda** ikkinchi qismidagi “Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiya” degan so'zlar “Odob-axloq masalalari bo'yicha doimiy komissiya” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

3) **87-modda** birinchi qismining beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalariga rioya qilishi”;

4) **90-modda:**

birinchi qismidagi “Deputatlik odobi qoidalariga” degan so'zlar “Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismidagi “Deputatlik odobi qoidalari” degan so'zlar “Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalari” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashining
2023-yil 24-iyuldagi
I-61-121-14-220-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining doimiy komissiyalari to'g'risidagi NIZOMiga kiritilayotgan o'zgartirishlar

Xalq deputaglari Yangihayot tuman Kengashining 2021-yil 26-avgustdagi VI-19-29-14-220-K/21-sonli qarori bilan tasdiqlangan xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari to'g'risidagi NIZOMiga quyidagi o'zgartirishlar kiritilsin:

1) 4-band birinchi qismidagi “Reglament va deputatlik odobi masalalari komissiyasi” degan so‘zlar “Odob-axloq masalalari bo‘yicha doimiy komissiya” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) 10-band ikkinchi qismidagi “reglament va deputatlik odobi masalalari bo‘yicha” degan so‘zlar “odob-axloq masalalari bo‘yicha” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

3) 18-band:

birinchi xatboshisidagi “Reglament va deputatlik odobi masalalari bo‘yicha doimiy komissiya” degan so‘zlar “Odob-axloq masalalari bo‘yicha doimiy komissiya” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

to‘rtinchi xatboshisidagi “Deputatlik odobi qoidalarini” degan so‘zlar “Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshisidagi “Deputatlik odobi qoidalari” degan so‘zlar “Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

sakkizinchi xatboshisidagi “Deputatlik odobi qoidalarini” degan so‘zlar “Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalarini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.